



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI KAFEDRASI**

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va
ularni echish yo‘llari” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Республиканская научно-практическая конференция,
посвященная 85-летию академика
Искандарова Тулкина Искандаровича
«Актуальные проблемы экологии Республики Узбекистан и
пути их решения»*



Toshkent – 2024

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo‘llari”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrası**



**Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb
muammolari va ularni echish yo‘llari” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani**

*Toshkent shahrida 2024 yil 25 aprelda
o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to‘plami.*

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Tahrir hay'ati:

- Boymurodov Sh.A.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b, t.f.d., professor
- Iskandarova G.T.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- Samigova N.R.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasida dotsenti, t.f.n.
- Tashpulatova M.N.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

Moderatorlar:

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasida dotsentlari:

Kurbanova Sh.I., Yusupxo'jayeva A.M.;

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasida assistentlari:

Rashidov V.A., Xadjayeva U.A., Yulbarisova F.A.

To'plamga 2024-yil 25-aprelda bo'lib o'tgan "O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari kiritilgan.

*To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun
muallif(lar) javobgardir.*

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ta'sir ettirilganga qaraganda 6 marta ko'proq namoyon bo'ldi. Ushbu tajriba natijalari ksenobiotiklarning turli kombinatsiyalari ichida kuchlirok, ta'sirga ega bo'lgan kombinatsiyalarni ajratib olish imkoniyatini beradi.

**O'RTA MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARINING OVQATLANISH
HOLATINI TAHLILI**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

A'trof muhit gigiyenasi kafedrasi dotsenti, t.f.d. Axmadaliyeva N.O.,

A'trof muhit gigiyenasi kafedrasi doktoranti Nigmatullayeva D.J.,

A'trof muhit gigiyenasi kafedrasi doktoranti Imamova A.O.,

A'trof muhit gigiyenasi kafedrasi assistenti Sadirova M.K.,

A'trof muhit gigiyenasi kafedrasi magistri Yesenbayeva R.M.

Kirish: Xalqaro tadqiqotchilarning fikricha, samarali ta'lim, mustahkam sog'lik va sifatli ovqatlanish inson kapitalini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolalar nafaqat ta'lim sohasi, balki sog'liqni saqlash sohasida ham alohida e'tiborni talab etadi. Aynan maktabdagi o'qish davrida bolalarda jismoniy, aqliy va ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me'yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog' miqdori ko'p bo'lgan taom va shirinliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish, shuningdek yetarli darajada vitamin va minerallar iste'mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o'sish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o'sma kabi insonning erta o'limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Olimlar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi o'rtasida oshqozon-ichak kasalliklari (nospesifik yarali kalit, surunkali xolesistit, pankreatit,

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

gepatit, jigar sirrozi) bilan kasallanish darajasi oshganligini ta'kidlashadi (Nurpo'latova S.T. va boshqalar, 2019y).

Tadqiqot maqsadi: Tadqiqotda dam olish kunlarida o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarining haqiqiy ovqatlanishini baholash olib borilgan.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot ob'ekti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi Sh.Musaev nomidagi 21-sonli umumiy ta'lim maktabi va maktab o'quvchilari, ularning 1 kunlik ratsionlari olindi. So'rab surishtirish 40 ta maktab o'quvchilarining ota-onlari bilan birgalikda o'tkazildi.

Olingan natijalar: So'rovnama natijalariga ko'ra dam olish kunlarida o'quvchilarning ratsionidagi sutning ulushi kunlik ratsionning og'irligining 1/5 qismidan kam bo'lgan va mutlaq hisobda sut zarur bo'lganidan 2,8 baravar kam iste'mol qilingan. Bolalar me'yordan sut va sut mahsulotlarini (smetana, tvorog, pishloq, sariyog'ni (3-5 martagacha), baliq (7 marta), 5,4 barobar sabzavotlarning (karam, sabzi, ko'katlar) iste'moli kamaydi; shakar, non, kartoshka - 1,4 marta yuqori iste'mol qilingan, qandolat mahsulotlari (5,5 marta), mevalar (2,5 marta), don va go'sht mahsulotlari (1,4 marta) kam iste'mol qilingan. Muhim oziq moddalarning o'rtacha kunlik iste'molini baholashda maktabgacha yoshdagi bolalarning ratsionidagi oqsil miqdori 82% ni tashkil etishi aniqlandi. Muhim aminokislotalarni etarli darajada iste'mol qilmaslik ratsiondagi hayvon oqsilining past ulushi bilan bog'liq edi (tavsiya etilgan ehtiyojning 80 %). Yog'lar kunlik ehtiyojning 85,9% ni, uglevodlar - 105,4% ni qoplagan. Tadqiqotda maktab o'quvchilarining ratsionida mineral moddalarni etkazib berish qiymatlarning katta o'zgarishi bilan tavsiflandi, masalan, mis, selen va magniy miqdori me'yoriy chegaralarda. Natriy, kaliy va temir iste'moli me'yordan yuqori ekanligi aniqlandi. Muhim mikroelementlardan kaltsiy, fosfor, yod, magniy kunlik ehtiyojning 65,8-84,9% ni qoplagan. Ratsionda vitaminlar uchun B1, PP, B2, A, C, ko'pgina vitaminlarning miqdoriy nisbati ham o'zaro mutanosib emas, ammo ratsionda aniq antioksidantlar

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

faollikka ega (A, C vitaminlari) ekanligi aniqlandi. Yog'da eriydigan vitaminlar ham mavjud, miqdori ijobiy.

Xulosa: Balog'at yoshiga o'tish davrda tananing o'sish va rivojlanishida ovqatlanishning roli ayniqsa muhimdir. 13 yoshdan keyin bu jarayon qaytarilmas holga keladi. Agar bu yoshga qadar bolada ovqatlanish kabi masalalarda miqdor va sifat etishmovchiligi bo'lsa, bu uning aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'lumki, bolalarning o'sishi va rivojlanishi uchun essensial mikroelementlar va vitaminlar ovqat mahsulotlari orqali ta'minlanadi. Shu sababdan ulrani ovqatlanishni ratsionallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni esda tutish kerakki, to'g'ri ovqatlanishning ushbu tamoyillari parhez emas va qat'iy rioya qilishni talab qilmaydi. Bu sog'lom ovqatlanish bo'yicha umumiy ko'rsatmalar va iloji boricha ularga rioya qilish kerak.

**BUXORO VILOYATI SUV MANBALARI IFLOSLANISHINING
ZAMONAVIY HOLATI**

Buxoro davlat tibbiyot instituti

**Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi, sog'liqni saqlash menejmenti
kafedrasi assistenti Alimov B.A.**

Kirish: O'zbekiston suv iste'moli bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Buni Worldometers ma'lumotlari tasdiqlaydi. O'zbekistonda har kuni aholi jon boshiga o'rtacha 4754 litr suv sarflanadi. Yillik iste'mol 54,5 milliard kub metrni tashkil qiladi. Bu reytingda Turkmaniston yetakchilik qilmoqda. Umuman olganda, Markaziy Osiyoning barcha respublikalari suv iste'moli bo'yicha jahonda yetakchilar qatoridan joy olgan. Markaziy Osiyo mintaqasi chuchuk suvning asosiy manbalari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryoga yuqori darajada bog'liqligi bilan ajralib